

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI
SHARQ FILOLOGIYASI VA TARIX FAKULTETI MOXT
YO'NALISHI XITOY-INGLIZ GURUHI**



Mustaqil ish

Mavzu: Yerqo'rg'on arxeologiyasini o'rganish

Bajardi: Meliboyev Suhrob

Tekshirdi: Qodirov Zikrullo

Toshkent 2011

Reja:

I.Kirish. Yerqo`rg`on yodgorligining ahamiyati.

II.Asosiy qism.

1.1 Shaharning tashkil topishi.

1.2 Zahoki moron qal'asi.

1.3 Shaharning vayron etilishi va inqirozi.

III. Yerqo`rg`onning monumentlari.

2.1 Otashparastlar daxmasi.

2.2 Sharqiy ibodatxona.

2.3 Qasr majmuasi.

2.4 Hukmdorlar maqbarasi.

2.5 Temirchilar mahallasi.

Xulosa.

Kirish.

Qarshi O'zbekistonning janubida joylashgan, XX asrning 70-80-yillarida juda ulkan sug'orish ishlari amalgam oshirilgan vohaning markazi sifatida mashhur bo'lgan yirik shaharlardan biridir. Bugungi kunga kelib, u O'zbekiston neft-gaz sanoatining markaziga aylandi.

Yozma manbalardan malumki, Qarshi shahri XIV asrda chig'atoy urug'laridan bo'lmish Kebekxon saroyi negizida tashkil topgan. Buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temur hukmronligining dastlabki davrlarida shahar atrofi ilk bora devor bilan o'ralgan. Shayboniylar, Ashtarxoniylar va Buxoro amirligi davrida ham Qarshi muhim savdo va hunarmandchilik markazlaridan biri bo'lib qoldi.

Shu narsa malumki, vohaning o'rta asr poytaxti hozirgi Qarshi shahridan 5 km olisda joylashgan va Naxshab (Nasaf arabcha shakli) deb atalgan. U XIII asrda Chingizxon tomonidan yondirilib, butunlay vayron etilgan. Yer bilan yakson etilgan bu shahar Chingizxonning nevarasi tomonidan biroz narida voha markazi sifatida Qarshi nomi bilan yangidan bunyod etilgan. Nasaf IX asrdan boshlab o'rta asrlarning gullab-yashnagan shahriga aylangan.

Shahar So'g'd zamini uchun arablar bilan uzoq davom etgan qonli janglar davrida mustahkam shahar qal'asi sifatida VII-VIII asrlardayoq ma'lum bo'lgan.

Arxeologik izlanishlar bu manbalar haqligini to'la-to'kis tasdiqlaydi. IV-V asrlarda vohaning suv taqsimoti hududida bunyod etilgan yirik va mustahkam bu qal'a VII-VIII asrlarga kelib vohaning poytaxt shahriga aylandi. Bunga qadar VI-VIII asrlarga qadar Qarshi vohasida shaharlarning bo'lgan bo'lmaganligi haqida yozma manbalarda biror-bir malumot uchramaydi. Ammo sayyohlar, qadimshunoslar va tadqiqotchilar XIX asrdan boshlab Qarshi-Buxoro yo'lining boshida, Nasaf shahridan 5 km shimolda joylashgan qadimgi ulkan shahar qoldiqlariga katta e'tibor bilan qarab keldilar. Uning tarixi yaqingacha nomalum edi. Atrofda yashovchi aholi xotirasida ham ba'zi afsonalardan bo'lak hech qanday ma'lumot saqlanib qolmagan. Bu shahar shunchaki Yerqurg'on deb keligan. O'z hajmi jihatdan qadimiy Baqtryaning Balx va Mesopatamiyaning Suz shaharlaridan qolishmaydigan bu qadimiy shahar qoldiqlari dastlab A.I.Terepojkin, S.K.Kabanov va M.E.Masson kabi arxeologlar tomonidan o'rganilgan. Biroq bu vayronalar jiddiy qazishma oshlari olib borilmaganligi sababli noaiqligicha qolgan. Bu vayronalar Qarshi vohasining ilk qadimiy poytaxti shu yerda bo'lganligidan darak beradi. XX asrning 70-yillaridab boshlab O'zbekiston FA Arxeologiya institutining maxsus ekspeditsiyasi bu qadimiy shaharda aniq maqsadni ko'zda tutgan qazishma ishlarini boshlab yubordi. Yerqurg'onning fan uchun o'ziga xos qimmqati shuki, VI asrda tashlab ketilgan bu shahar yaxshi saqlanganki, XX asrga qdar deyarli ziyon-zahmatsiz yetib kelgan. O'z davrida Yerqurg'on butun So'g'diyonaning poytaxt shahri bo'lgan. So'g'diyona qadimgi So'g'd mamlakati janubidagi Baqtrya bilan shimoldagi skiflar o'rtasida joylashgan bo'lib, markaziy Osiyoning yuragi hisoblangan. Zarafshon va Qashqadaryo vodiylari So'g'diyonaning tub hududlarini tashkil etgan. Arablar kelgunga qadar va Islom dini yoyilgan davrlarda bu joyda yashab kelgan xalq o'zini So'g'dlar deb atagan

Hozirgi O'zbekistonning Qashqadaryo viloyati qadimgi So'g'd vohasining unumdor dehqonchilik hududini egallagan bo'lib, qadimda o'z suvlarini Amudaryoga quyuvchi Zarafs hon va Qashqadaryo daryolari oralig'ida, Movarounnahrning qoq markazida joylash-gan. Movarounnahrning barcha tarixiy rivojlanish bosqichlari ushbu viloyat bilan cham- barchas bog'liqdir. Kitob va Shahrisabzda joylashgan qadimgi shaharlarda olib borilgan qazish ishlari davomida arxeologlar tomoni-dan topilgan xilma xil moddiy boyliklar va tangalar silsilasi antik So'g'diyonaga xos bo'lgan boy madaniyatdan dalolat beradi. Antik davrdan keyingi ilk asrlardagi mustaqil davlatlar hisoblanmish Kitob, Zahoki Maron va Qarshi yaqinidagi Yerqo'rg'on shaharlari tarixiy qatlamlarda yorqin iz qoldirgan. **Yangi eraning V asrida kelib esa antik shaharlar-ning tanazzulga yuz tutishi kuzatiladi. IV-VII asrlarda birin-ketin ilk feodallarning mustahkam qal'alari paydo bo'la boshladi.** (Muddintepa, Sho'rtepa, Shullikto'pa va bosh- qalar shular jumlasidandir). Arxeologik qazishmalar mobaynida IV-VII asrlarda mavjud bo'lgan Kadjartepa, Tog'aytepa, Ko'x- nafazli shaharchalarining qoldiqlari topildi. Shu vaqtda Kesh viloyati (Kitob va Shahri- sabz) va Naxshab (hozirgi Qarshi shahri) Turk hoqonligi davlatining tarkibiga kirgan. Federatsiyasi tarkibiga kirardi. Ular muxtoriyat hisob- lanar hamda Samarqandda hukmronlik qiluvchi hoqonga hiroj to'lardi.

Yerqo'rg'on (shahar xarobalari)

Qadimgi Naxshab, Nashebolo, Nasaf nomlari bilan mashhur shaharning qadimgi xarobalari hozirgi Yerqo'rg'on¹da joylashgan bo'lib, hozirgi Shayxali bekati hududida zamonaviy Qarshi shahri ma'muriy hududining shimoliy chegaralaridan **bir yarim kilometr** uzoqlikda joylashgan.

Yerqo'rg'onning joylashuvi

Yerqo'rg'onning hududi ichki va tashqi devorlari chegarasida eski shahar xarobalaridan iborat bo'lgan turli xil kattalikdagi balandliklar bilan o'ralgan. Eng katta balandlik hukmdor qasri ekanligi ma'lum bo'ldi. Shuningdek, tsitadel (qal'a ichidagi qo'rg'on), shahar ibodatxonasi, maqbara, zardo'shtiylik ibodatxonasi, hunarmandlar mahallalari qazib olindi. Yerqo'rg'on atrofida, butunlay yo'qolib ketgan, o'zaro zich joylashgan shahar oldi imoratlar bo'lgan va ilk ming yillikning birinchi yarmida keng jihozlangan shahar oldi hududi g'arbga tomon Qashqadaryo daryosi sohillarigacha cho'zilgan. Yerqo'rg'on¹dagi shahar VI asrda eftalitlar davlatini ishg'ol qilish davomida turk hoqonligi va eron sosoniylarining birlashgan kuchlari tomonidan yoqib yuborilgan va vayron qilingan.

Yerqo'rg'on shahri qazilmalaridan olingan ko'plab buyumlar to'plami Qarshi vohasi hamda poytaxt shahri tarixi va madaniyati bir necha bosqida rivojlanganligini isbotlashga etarli asos bo'la oladi.

¹Kabanov S K "Naxshabskaya monet V—VI vv"

Shaharning tashkil topishi

Vohaning dastlabki markaziy shahri er.av. VIII-VII asrlarga kelib ilk marta himoya devorlari bilan o`raldi. Bu devor keyinchalik buzilib ketgan bo`lib, uning qoldiqlarini kulollar mahallasining eng quyi qismidan topishga erishildi. Er. Av. VI asrda shaharlar kengayib, yangi devor qurildi. Eski devor shahar ichida qolib ketdi va keraksizligi tufayli kulollar tomonidan sopol idishlar tayyorlash uchun loy sifatida ishlatila boshlandi. Shuningdek, bu erda Yerqo`rg`on shahri tarixining intihosigacha faoliyat ko`rsatgan kulollar mahallasi paydo bo`ldi. Qadimgi devor, aniqrog`i, uning qoldiqlari eramizning boshlariga kelib, kulollar mahallasi madaniy qoldiqlari ostida ko`milib ketdi. Yerqo`rg`onda qadimiy devor, aniqrog`i uning qoldiqlari eramizning boshlariga yaqin kulollar hududi madaniy qatlami ostida to`liq ko`milib qolgan edi.

Qadimiy Yerqo`rg`on shahri tarixi haqida biz yana quyidagilarni aytishimiz mumkin: Qashqadaryo daryosi vodiidan vohaga kirib kelishida bir qancha irmoqlarga bo`linar va quruq deltani hosil qilar edi; deltadan oqib o`tuvchi irmoq chap qirg`og`ining quyi qismida miloddan avvalgi VIII-VII asrlarda tarqoq holdagi dehqonlarning istiqomat joylari, ya`ni qishloqlari paydo bo`la boshladi. Uning markaziy qismi himoya devori bilan o`ralgan. Shu yo`l bilan Qashqadaryo vohasining eng dastlabki poytaxt markazlari vujudga kelgan. Bu qadimiy shaharning uy va binolari bog` va ekinzorlar bilan o`ralgan edi. Shimoliy delta irmog`ida oqib keluvchi sug`orish kanallari sug`orish maqsadida janubiy-sharqiy tomonga Qashqadaryoning asosiy oqimiga qaratilar edi.

Eramizdan oldingi 1 ming yillikning o`rtalarida shahar tobora kengayib borgan. Yangi himoya devorlarining ba`zi erlari 8 metrgacha balandlikni saqlab qolgan bo`lib, asosi 3 metr qalinlikka ega bo`lgan. Qalin va baland devorlar shaharni sak otliqlaridan himoya qilar, ammo devor buzuvchi qurollarga qarshilik qilolmas edi. U 40 gektar maydonga yaqin xududni o`rab olgan edi.

Bu davrda Qarshi vohasida ham So`g`d va Baqtriyadagi kabi **konus** shaklidagi tsilindrik kulolchilik idishlari keng tarqalgan edi. Ushbu idishlar sekin harakat qiluvchi kulolchilik uskunalarida yasalar edi.

Zahoki moron qal'asi

Miloddan avvalgi II asrda Qarshi voxasida, Yerqo`rg`ondan janubroqda Qarshi shahrining temir yo`l vokzali yaqinida katta qal`a - qal`ai zaxoki maron bunyod etiladi. Qal`aning markaziy qismida to`rtburchak shakldagi ulkan qasr mavjud bo`lib, u taxminan 100x100 m hududga va 15 metrgacha balandlikka ega bo`lgan. U 200x200 m li birinchi qator devori bilan o`ralgan bo`lib, ikkinchi qator esa 400x400m hududga ega bo`lgan. Uchinchi (saqlanib qolmagan) qator, akademik **M.E.Masson fikricha, 1.5x1.5 km hududga ega bo`lgan.**

Ushbu uchinchi qator devorlarini M.E.Masson revolyutsiyadan oldingi topografik xaritalar yordamida tiklamoqda. Minora ham devor kabi mil. av. V-IV asrlarda bir necha marotaba qayta qurilgan. Zahoki maron qal'asining o'z arxitektura prototipi skiflarning babaishmulla qal'asi bo'lib, u sharqiy orolbo'yida joylashgan chirikrabot madaniyatiga tegishli xududdan topilgan. Zahoki maron qal'asi hududi va uning gipertroflangan fortifikatsiyasi bu erda So'g'dning yangi xonliklariga oid qurilishlar mavjud bo'lganligini ko'rsatib turadi. Ularning xukmronlik doirasi Naxshabdan ham o'tib ketib, butun So'g'd hududlarigacha yoyilgan. Yerqo'rg'ondagi shahar o'zining ellinlashgan madaniyati bilan birga Qarshi vohasining hunarmandchilik, savdo va madaniyat markazi rolini saqlab qolgan edi. Yangi hokimlarning Yerqo'rg'onga e'tibor berayotganligi haqida shu narsa dalolat beradiki, shahar kattalashib borar edi, u ikkinchi himoya devori bilan o'rab olinadi va bu devor 150 gektarga yaqin xududni tashqi xavfdan saqlab turar edi. **Yerqo'rg'on tashqi devori asosi 8 metr qalinlikda bo'lib, har 60 metrda yarim doirali minoralar qurilgan edi.** Devorning tepa qismida devor ichi koridori, o'q-yoychilar xonalari mavjud bo'lgan.

Yerqo'rg'onning shimoliy-g'arbiy tomonida qazish ishlari olib borilganda shu davrga tegishli zardushtiylik ibodatxonasi ham topildi. Milodiy III asrdan boshlab Yerqo'rg'onida shaharsozlik yangi sifat bosqichiga ko'tariladi.

Yerqo'rg'onida katta xajmdagi qurilish ishlari olib borilgan bo'lib, bu erda shahar ibodatxonasi, hukmdor qasri, tsitadel bunyod etilgan xamda ichki va tashqi devor qayta ta'mirlangan. Kulollar va temirchilarning xududlari kengayib borgan.

Xionitlar va eftalitlar davrida Yerqo'rg'on markaziy osiyoning gullab-yashnagan shaharlaridan biri bo'lgan. Markaziy shahar atrofida shahar oldi aglomeratsiyasi tashkil topa boshlagan. Qarshi vohasining III-IV asrlardagi poytaxt markazida bunyod etilgan jamoat binolarning mohiyatiga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir. Shahar infratuzilmasi murakkab ko'rinishga ega bo'la boshlaydi. U alohida birliklarga bo'linar edi. Ko'chalar ibodatxona, qasr va tsitadelga olib borar edi. III-IV asr shahar tuzilmasi ikki qatlamli baland devor bilan chegaralangan bo'lib, jamoat binolari shakli bilan belgilangan. Ular shahar ijtimoiy hayotining yo'naltiruvchisi bo'lib, ma'muriy, diniy hamda mudofaa markazlari hisoblangan. Yerqo'rg'onning kulollar va temirchilar mahallalarida bunyod etilgan inshootlarning o'ziyoq bu erda shaharsozlik juda rivojlanganligidan dalolat beradi. Shaharning vayron etilishi va inqirozi

V asrda shahar yong'in ostida qolgan, so'ngra esa yana qayta tiklangan. VI asrda esa shahar butunlay vayron bo'ldi. bu eftalitlarning turk hoqonlari va eron sosoniylarining birlashgan qo'shinlari bosqini natijasida xukmronlikni qo'ldan chiqarishi natijasida sodir bo'ldi. Shundan so'ng esa VI asr oxiri VII asr boshlarida tashlandiq shahar xarobalari ustida kulollar maxallasi bunyod etiladi. Shahar ibodatxonasi qayta tiklandi. Biroq avvalgi iloh xaykalchasi o'miga to'g'ri burchakli olov mehrobi o'rnatildi. Bu ibodatxonaning so'ngi davri VII asrda keshda zarb etilgan tangalarda o'z aksini topgan.

Yerqo`rg`ondagi qazishmalarda muhim topilmalar bu davr to`g`risida muhim ilmiy xulosalar chiqarishga to`la asos bo`la oladi. Olimlar bularga asoslanib, qadimgi nahshabliklarning ma`naviy dunyosiga sayohat qilishga muvaffaq bo`ldilar. Samarali nazariy tadqiqotlar olib borgan olimlar Yerqo`rg`onliklarning go`zallikka naqadar oshno bo`lganliklarini o`z ko`zlari bilan ko`rdilar.

Qadimgi Qarshi vohasining aholisining qadimiy madaniyati, san`ati va mafkurasiga tegishli bo`lgan topilmalar va kuzatishlar haqidagi hikoyani shundan boshlash kerakki, dastlabki temir davrida So`g`dda ham baqtriyada ham mil. av VII-V asrlarga tegishli shaharlar axolisining izlari topilmagan. Bu fakt olim va mutaxassislarni shunday fikrga olib keladiki, ular ilm-fanga allaqachon ma`lum bo`lgan murdani tashlab ketish kabi zardushtiylik odatini qo`llaganlar. Yunon-rim va arab manbalariga ko`ra markaziy osiyo islom dinigacha zardushtiylikning makoni hisoblangan. Zardushtiylik o`liklarni yoqishmagan xam, ko`mishmagan xam. Ular murdani balandliklar, qir-adirlarga tashlab ketishgan. Tana chirib bitgach, suyaklarni yig`ib olib ossuriy idishlariga solgan holda ko`mishgan. Ammo dastlab suyaklarga hatto tegishmagan bo`lsa kerak. Keyinchalik suyaklarni ko`mishni boshlaganlarida ham faqat kalla va yirik suyaklarni terib olishgan, xolos.

Biroz vaqt o`tgach zardushtiylik suyaklarni saqlash uchun maxsus bino - nauslar qurishgan. Nauslarda yiliga ikki marta navro`z va mehrjon bayramida ajdodlar ruhiga bag`ishlab diniy marosimlar amalga oshirilgan. Bular Yerqo`rg`onning o`ziga tegishlidir. Bizga shahar aholisining qabrlari noma`lumdir. Yerqo`rg`onning qadimiy madaniy qatlamida olib borilgan qazishmalar natijasida ba`zi joylaridan ajralib ketgan inson suyaklari topilgan. Iskandar zulharnayn tarixchilarining xabar berishicha, So`g`d bilan qo`shni bo`lgan baqtriyada shahar devorlarining ichlari inson suyaklari bilan to`la bo`lgan va faqat iskandar davriga kelib bu odatga barham berilgan.

Yerqo`rg`onning monumentlari

Yerqo`rg`ondagi shahar ibodatxonasi xarobalaridagi qazishmalar ostida yana ikkita inshootlarning qoldiqlari shaharga stratigrafik shurfni qo`llaganda aniqlandi. Yuqori qatlam ellin davriga tegishli bo`lib, pastki qatlam esa mil. Av. 1 ming yillikning o`rtalariga tegishlidir. Olimlar III-IV asrda qurilgan ibodatxona shaharning qadimiyroq ibodatxona xarobalari ustida qad ko`targan bo`lsa kerak, degan taxminga bordilar. Bunga shu narsa dalolat beradiki, eng pastki inshootning ochilgan qismi g`ishtli platformadan iborat bo`lib odam bo`yi bo`lgan. Uni materikdan yupqa toshko`mir qatлами ajratib turadi. Bizga shu narsa ma`lumki, zardushtiylik o`z diniy rasm-rusmlarini ochiq joylarda o`tkazishgan. Ushbu muqaddas joy platforma ustida joylashgan bo`lib, u taxminan mil. Av. 1 ming yillikka tegishlidir. Platforma ostida esa kul uyumi mavjud bo`lib, u maydonni tozalash natijasida yig`ilib qolgan.

Bu davrda O'rta Osiyoning asosiy tarixiy-madaniy hududlari - Baqtriya, Marg'iyona, So'g'd, Xorazm shakllangan. Bu davrda ushbu mintaqada dastlabki shaharlar - dehqonchilik vohalarining markazlari paydo bo'ladi, ilk davlatlar tashkil topadi. Shu davrdan boshlab O'rta Osiyoda shahar madaniyati uzluksiz, jadal sur'atlar bilan rivojlanib boradi.



Sirdaryo va Amudaryo oralig'ida, Zarafshon va Qashqadaryo vohalarida qadimgi so'g'd elati va o'troq dehqonchilik madaniyati shakllanadi. Qashqadaryoda miloddan avvalgi birinchi asrning boshidan ikkita asosiy voha - Qarshi va Shahrisabz vohalari shakllanadi. Aleksandr Makedonskiy bilan birga yurtimizga kelgan yunon tarixchilari milodning IV asri oxirida Qashqadaryo vodiysidagi ikkita tarixiy-madaniy viloyat - Nautaka va Nikshapani eslab o'tishadi.

Miloddan avvalgi III-II asrlarda Yerqo'rg'on o'rnidagi shahar rivojlanib borgan, buni arxeologik topilmalar tasdiklaydi. Jumladan, sopol buyumlarning shakli o'zgara boshlagan. Bular nafis jomlar, ovqat solinadigan idishlar, laganlardir, ayni paytda bu davrda vohada koroplastika san'ati vujudga kela boshlaydi. Bu davrdagi noyob terrakota rasmlar va bezaklar ellincha usulda yasalgan. Qazilmalar mobaynida topilgan momaqaldiraq xudosi Zevs tasviri tushirilgan miloddan avvalgi V-IV asrlarga mansub etruskcha gemmaintaliya ham shu davrga oiddir. Soqolli yalang'och mavjudot yarim burilgan holda chap qo'lida Zevsning hamrohi - burgut qo'ngan asoni ushlab turgan tarzda tasvirlangan.



Qal'ai Zahhoki Moron va uning o'n metr qalinlikdagi devorlari Yerqo'rg'on kabi bir necha marotaba qayta qurilgan. Devor tarkibini o'rganish ularning eng dastlabkilari miloddan avvalgi II-I asrlarga

mansubligini ko'rsatdi. Milodning IV-V asrlarida shahristonni qayta tiklash paytida devor ichidagi yo'laklar barpo etilgan. Milodning VIII asriga



kelib shaharning asosiy qismida hech kim yashamay ko'ygan, markaziy minoraning tepasida kichik qo'rg'on bunyod etilgan.

Miloddan avvalgi dastlabki asrlarda Yerqo'rg'on o'rnidagi shahar kengaytirilgan hamda deyarli 150 gektarlik maydonni qamrab oluvchi tashqi devor bilan o'ralgan.

Miloddan avvalgi II-I asrlarda Yerqo'rg'onning ichki shahrida VIII-VII asrlarga mansub eng qadimgi devor xarobalari o'rnida kulollar mavzesi barpo etilgan, tashqi shaharda esa - Samarqand tomonga olib boruvchi qadimgi yo'l yoqasida - temirchilar mavzesi bo'lib, ular shahar VI asrda vayron bo'lguncha mavjud bo'lgan.

Yerqo'rg'onning bu davrga oid sopol idishlari ko'pincha qo'ng'iroqsimon oyoqli nafis jomlar sifatida ishlangan. Idishlar bilan bir katorida kulolchilik ustaxonalarida turli ma'budalar, harbiylar, otiqlar, shuningdek, ot, qo'y, echki, kamdan-kam holatda esa yovvoyi yirtqich hayvonlar haykalchalari yasalgan.



Qazilgan madaniy qatlamlarni o'rganish davomida shu narsa ayon bo'ldiki, Yerqo'rg'onda faol bunyodkorlik ishlari milodning III asrigacha davom etgan.

Xioniylar va eftalitlar davri - IV-VI asrlarda Yerqo'rg'on Markaziy Osiyoning eng yirik va gullab-yashnagan shaharlaridan biri bo'lgan. Poytaxt shahar atrofida keng ko'lamli qurilmalar aglomeratsiyasi qaror topgan. Shahar infratuzilmasi alohida tarmoqlarga birlashgan murakkab tusga ega bo'lgan. Ko'chalar ibodatxonaga, saroy va makbaraga olib borgan.



III-IV asrlarda Yerqo'rg'on ikki qavat baland devor bilan o'ralgan bo'lib, diniy marosimlar o'tadigan monumental binolarni o'z ichiga olgan. Ular shahar jamoatchiligi hayotida hududiy belgilar sifatida xizmat qilgan, vazifasiga ko'ra ma'muriy, diniy marosimlar o'tadigan joy va mudofaa markazi rolini o'tagan.

Yerqo'rg'onning kulollar va temirchilar mavzelarining so'nggi ustki qatlamiga ko'ra, milodning V asrida shaharda yong'in va haloqat sodir bo'lgan, keyinchalik hayot yana o'z iziga tushgan. Milodning VI asrida shahar butkul vayron bo'lgan, bu hol Turk xoqonligi va Eron Sosoniylarining birlashgan harbiy koalitsiyasi hujumi ostida Eftalitlar davlatining emirilishi bilan bog'liq bo'lsa kerak.

Shundan so'ng milodning VI asri oxiri va VII asrning boshida shahriston ustida, bir paytlar yirik

kulollar mavzesi bo'lgan joyda kichik kulollar ko'rg'oni tiklangan. Shaharning huvillagan ibodatxonasidagi bir paytlar ilohiy ma'buda o'rnatilgan joyda to'g'ri burchakli otashkada o'rnatilgan. Ibodatxonaning ushbu so'nggi davri VII asrning o'rtalariga mansub Kesh tangasida ham o'z aksini topgan.

Otashparastlar daxmasi

Zardo'shtiylik o'rta osiyo va So'g'dda qadimdan mavjud bo'lganligi to'g'risida yozma manbalar guvohlik beradi. Bu ma'lumotlar Yerqo'rg'onda daxmani qazish ishlari olib borilganda o'z isbotini topdi.

Yerqo'rg'on dahmasi - So'g'diyona antik arxitekturasidagi o'z mohiyati va maqsadiga ko'ra noyob to'rt burchakli monolit shakliga ega bo'lgan, -g'arbiy va sharqiy old tomonida ikki marosim maydoni mavjud bo'lgan shaklni eslatadi. Yerqo'rg'on dahmasini bo'rtma asosi o'ziga xos bo'lib, na Hindistondagi pars'larning "jimlik minoralari", na erondagi qoya sag'analari va ustunli yodgorlik inshootlariga o'hshaydi. Biroq dahma arxitektonika va dekorining detallari etarli darajada qadimgi sharqiy va ellin arxitekturasida an'anaviydir. Devorlarining bir maromda vertikal tarzda tekislab chiqilishi, asosiy zinaning konstruksiyasi, dahma old tomoni devorining ustki qismini bezab turgan tishli merlonlar va bezakli to'g'ri burchakli g'ishtchalar - bularning hammasi qadimgi sharq arxitekturasida, shuningdek, orol oldi sak qabilalarining qabr inshootlari va ellin shahri oyxonumdagi ibodatxona - yodgorlik arxitekturasida ham o'z aksini topgan.

Dahmadan topilgan oz miqdordagi sopol material miloddan avvalgi II asrga oid. Dahma ko'p faoliyat ko'rsatmagan, u taxminan mil. av. II asrda xom -g'isht bilan yopib tashlangan. Ehtimol u shahar tashqi devori barpo qilingandan so'ng bu ahvolga kelib qolgan bo'lishi mumkin, chunki u dahma to'g'risidagi ilohiy qonunlarga amal qilgan holda amalga oshirilgan. Ushbu qonunlarga ko'ra, bu kabi marosimlarni shahar kvartallari orasida o'tkazish mumkin bo'lmagan. yuqoridagi maydon vayron qilingan. G'arbiy tomonda olib borilgan tozalash ishlari jarayonida ustki tomonidan g'isht va tuproq aralashmasidan yopilgan oq ohakli qoplamalarning qoldiqlari topildi. Shu bilan birga, odam mayda suyaklari, tishlar, qimmatbaho taqinchoq va noyob sopol bo'laklari topildi. Dahmaning sharqiy old qismidan esa odam bosh chanog'ining ba'zi qismlari va erkak kishining naysimon suyaklari joylashgan siniq xumcha topildi. Ikkinchi bosh chanoq g'arbiy yon bag'irning etagidan topildi. Dahmaning ustki qismida So'g'dning yunon-baqtriyaliklardan tortib olgan mil. Av. I asrda yashagan, kelib chiqishi saklardan bo'lgan naxshab xukmdorlari sulolasiga talluqli bo'lgan kishilarning jasadi saqlangan va dahma ularga tegishli bo'lgan.

Fanda ma'um bo'lgan Hindiston va eron pars'larning dahmalari yangi davr va qisman o'rta asrlar davriga mansub edi. **Biroq 1940 yildayoq xorazmdagi chilpak tepaliklarida s.p. Tolstov tomonidan asosi aylana shaklida bo'lgan (er. III-IV asrlariga tegishli bo'lgan) dahma qoldiqlari topildi.** Erqo'rgondagi dahma shunga o'xshash bo'lgan eng qadimgi inshoot xisoblanadi. Eronda topilgan, suyaklari tozalangan qabrlar axmoniylardan keyingi davrga oid bo'lib, ular erqo'rgondagi dahma bilan deyarli bir vaqtga tegishlidir. Xorazmning haykalsimon ossuariylari ham mil. av. IV-III asrlarga to'g'ri keladi.

Dahmalar bu vaqtgacha jasadlar saqlanadigan inshoot vazifasini o`tamaganligi ehtimoldan xoli emas, chunki ma`lum va mashhur zarushtiylik dafn marosimlari va u bilan bog`liq rasm-rusumlar, ko`pchilik tadqiqotchilarning fikriga ko`ra mil. Av. II-I asrda tuzilgan videvdatada keltirilgan.

Eramizning III-IV asrlarida nahshabda marvlik arshakiylar sulolasi vakillarining hokimiyat tepasiga kelishi va undan keyingi qabilalarning ko`chishi natijasida keskin etnomilliy o`zgarishlar ro`y berdi. Ushbu davrda marv va nahshab o`rtasida madaniy aloqalarning mavjud bo`lganligi Yerqo`rg`on shahar ibodatxonasi va uning ustki qismida olib borilgan qazish ishlari natijasida oydinlashdi.

Sharqiy ibodatxona

Shahar markazida joylashgan ibodatxona kompleksi yonma-yon turgan va fasadlari janub tomonga qaragan ikki alohida binodan iborat bo`lgan. Sharqiy ibodatxona - keng xovliga chiquvchi katta to`g`ri burchak shakliga ega bo`lgan janubida ikki ustunli ayvonli zal shaklida bo`lgan. U oldin mavjud bo`lgan bino xarobalarini yopib turgan baland g`ishtin platforma ustida joylashgan. Ayvon pastroqda joylashgan. Undan ham pastroqda xovliga kiraverishda janubga tomon pasayib boruvchi ko`ndalang terassalardan iborat bo`lgan xovlining ustki qismi joylashgan. Ibodatxona milodiy III-IV asrlardan to VII asrgacha faoliyat ko`rsatgan, shu bilan birga u bir necha bor qayta qurilgan.

Kamida besh marotaba yirik qayta qurishlar bo`lib o`tgan. Biroq bir qatordagi ibodatxona, ayvon va xovlining umumiy rejasi o`zgarmay qolgan. Ibodatxona (13,2x7,5 m) devorlarida gumbazsimon qubbali o`yikli tokchalar mavjud bo`lgan. Ustunlar ganchli qoplamaning qalin qatlamini yopib turgan bo`lib, ular tiniq qizil rangda bo`lgan. Devorlar va tokchalarda rang-barang yozuvlar bo`lgan, afsuski, ulardan deyarli xech narsa saqlanib qolmagan. Tokchadagi yozuvlardan xulosa qilib aytadigan bo`lsak, ular ichki bezakli ornamental xususiyatga ega bo`lgan. Devorlardagi yozuvlar esa lavhali shaklda bo`lgan. Bo`yoq qadimgi rassom tomonidan mayin alebaster suvog`i ustidan o`tkazilgan, ba`zi joylarda esa bo`yoq loy suvoq ustidan mohirlik bilan surilgan. Ibodatxona janubidagi peshayvonning hajmi 18,5x7,0 metr bo`lgan. Uning devorlari bo`ylab qator-qator sufalar joylashgan. Ayvonning shimoliy devori qadamjoga kirishning uyachalari har ikki tomondan har birida kichik ustunli yirik tokchalarga ega bo`lgan. Tokchalar va ustunlar qizil rangga bo`yalgan, ayvonning devorlari yarim xromli yozuv bilan yozib chiqilgan, u ham deyarli saqlanmagan. Ayvonning tomi, extimol ikki qatordan qilib qo`yilgan sakkiz ustunga tayangan.

Ayvonning shimoli - g`arbiy burchagida marosim gulxanlari yoqiladigan to`siq bilan to`silgan - g`arbiy maydonga chiqadigan yo`lakcha joylashgan. Chamasi u yerda ibodatxonaning boshqa erlarida yoqilgan gulxanlarning kuli saqlangan. Har bir yoqishdan so`ng kul albatta bir qator qurbonliklardan so`ng, loy va tuproq bilan yopib tashlangan. G`arbiy maydonda to`plangan kulning qalinligi ikki metrga etadi. U tuproq bilan qoplangan yupsa kul qatlamlardan iborat bo`lgan. Eng pastki gulxan butun maydonning ustki qismida kuzatildi.

Uning markazida qalinligi loyli qatlam bilan 0,5 metrga teng. Unda tuproq va kul aralashtirilgan katta siniq xum topilgan. Kulning oldida jangchining qalqonidan qolgan ko`plab bo`laklar topilgan, ular bilan bir qatorda kamon o`qlarining uchlari va taqinchoqlar ham topilgan. Bu topilmalar orasidan to`g`ri burchakli himoya minorasi va tuproq qo`rg`onning ikki qal`a qismi va minoradagi nayzasimon tuynuk tasviri tushirilgan oltin nishona ajralib turadi. Kulning yuqori qatlamida qurbonlik qilingan hayvon suyaklari va siniq idishlar bilan birga yorug`lik taratuvchi ko`plab asboblar topilgan.

Ibodatxona hovlisini qazish ishlari ko`rsatganidek, u qo`shimcha binolar bilan o`rab olingan edi. Mazkur binolar loy bilan to`ldirilgan maydondan ko`tarilib turgan maydoncha ustida barpo etilgan.

Sharqiy ibodatxonani qazish ishlari shuni ko`rsatadiki, u uzoq vaqt davomida o`zgarishsiz faoliyat ko`rsatgan. ibodatxona poli va ayvonida ta`mirlash ishlari olib borilganligi natijasida suvoqning qalin qatlami vujudga kelgan. Ehtimol milodiy IV asrda ibodatxona qayta qurilgan bo`lishi mumkin. Ibodatxonada xudoning haykali turgan kirish qismining qarshisida turgan katta markaziy peshayvondan tashqari ko`plab boshqa peshayvonlar ham qurilgan. Sufalarda tashqi devorlarni mustahkamlovchi devorlar qurilgan. Ayvondagi polning sathi ibodatxona poli sathigacha ko`tarilgan. Ayvon ichida bir qatorda turli tipdagi ustunlar saqlanib qolgan. Asosning ikkinchi qatori janubiy qismda bo`lib, ular saqlanmagan. Ayvonda ibodatxonadan farqli o`laroq ustunlar asosi yog`ochdan bo`lgan. Ayvonda ham tokchalar qo`yib chiqilgan. Tez orada uchunchi qayta qurish ham ro`y bergan. Bu jarayonda markaziy tokcha oxirigacha qad rostlagan va keng pog`onali postament sufa qurilgan bo`lib, unda ilohning haykali mavjud bo`lgan, degan taxmin qilinmoqda.

Ibodatxonaning binosi qo`shimcha ikki devor bilan uch alohida qismga bo`lingan; markaziy kirish qarshisida sanam turgan, o`rta hajmdagi ibodatxona, yon tomonda esa xizmatkorlar uchun ikki tor bino mavjud bo`lgan. Ibodatxona polining sathi 70 santimetrga ko`tarilgan. Uchinchi qurilish jarayonida polning sathi ayvonda ilgorigidek saqlangan. Devor oldidagi sufalarning shakli o`zgargan. III davr ohirida g`arbiy maydondagi kulxona g`isht va loy bilan yopib tashlangan va uning ustida IV-V qurilish davrida faoliyat ko`rsatgan qo`shimcha binolar qurildi. Nisbatan yahshiroq saqlanib qolgan shimoli-sharqdagi kvadrat shaklidagi bino ichidagi xonadan turli xildagi sopol idishlar va bronza ashyolari topib olindi va ular ibodatxona faoliyatining oxirgi davri bo`lmish VI asrga tegishli ekanligi aniqlandi.

IV-V qurilish davridagi binolarni qayta qurish unchalik ahamiyatli emas edi va faqatgina ibodatxona bilan cheklanib qolgan, ayvon va hovli qismlari deyarli qayta qurilmagan.

Yuqorida qayd etilganidek, I-II davrga tegishli bo'lgan g'arbiy maydon kuldonlaridagi keramikani o'rganish natijasida uni III-IV asrlarga tegishli, deyishga asos bor. Uning faoliyati so'nggi davri to'g'risida So'g'dning yangi davrdagi podshosi shishpira tangasi guvohlik beradi. Ushbu tanga V davr qurilishi poli tepasidan topib olindi.

Bu erda bir vaqtlar juda boy bo'lgan tasviriy san'at yodgorligidan, shuningdek, Yerqo'rg'o'ning sharqona ibodatxonasidan deyarli hech narsa qolmagan. I qurilish davri yozuvlari II davrgacha bo'lgan uzoq faoliyat davomida deyarli ko'chib tushgan. Ayniqsa, II davr uchun ustun bo'lib xizmat qilgan devorlar buzilgach, I davr devorlari yuzasida bo'yoq dog'larigina qolgan edi. Biroq II davr tokchalaridagi yozuvlar yaxshi saqlangan. Ushbu tokchalar oq fonda chizilgan panjara tarzidagi rasmlar bilan bezalgan ornament shaklida jangchini tasvirlovchi fragmentlardan iboratligini namoyish etib turibdi. pastdan panjara tarzidagi bezaklar yarim aylanalar bilan o'rab olingan. Asrab qolingani eng yirik fragment markaziy tokchani yon devorchasidan topib olindi. Unda oq nimbalardan iz qolgan tabiiy kattalikdagi anfas tasviri ko'rinib turadi. Tasvir kengroq bo'lgan qora ramka bilan o'rab olingan, xuddi shunga o'xshash chiziqning bo'laklari rasm bo'lagidan pastroqda ham kuzatiladi. G'arbiy ustunning asosida ham uslubiy jihatdan farqlanib turuvchi tasvirlar tushirilgan, taxminlarga ko'ra ular biroz kechroq chizilgan. Ular asosdan 1 m balandlikda joylashgan bo'lib, ustun asosini o'rab turuvchi bir qancha ramziy belgilardan iborat bo'lgan: afsonaviy 2 boshli qush va olov mehrobining mayin qora konturli chiziqlari yordamida qizil fonda ritmik ravishda takrorlanib turuvchi tasviri mavjud.

Ibodatxonaning markazga yo'nalib turgan tomonida qizil fonda oq rang bilan chizilgan ikki insonning surati tushirilgan. Ehtimol ular madhiya aytayotgan paytda chizilgan kohinlarning tasviri bo'lishi mumkin. Ulardan birining qo'lida tirnavli aylana predmet, ikkinchisining qo'lida - uzuk va boshqa ayrim predmetlar bor.

Ibodatxonaga bag'ishlab qurilgan ilohning haykali u erda o'ziga xos o'rin egallagan. Haykallar soni to'rtta bo'lgan shekilli, har bir qayta qurishdan so'ng eski sanamning haykali sindirilib, uning bo'laklari devor va pollar orasiga va ostiga tashlangan, uning o'rniga boshqa haykal o'rnatilgan. Bu erda hatto oxirgi davrda ham g'ishtdan qilingan, tepadan oq chang suvoq bilan surkalgan to'g'ri burchakli mehrob bino qilingan. Ushbu mehrob tozalanganda ham uning yuqori qismi toza kul qatlami bilan qoplanganligi ma'lum bo'ldi. Mehrob ostidan yog'och karkasda qilingan va bo'yalgan loy haykal qoldiqlari topildi. Mazkur qoldiqlarni o'rganish natijasida shunday xulosaga kelish mumkinki, ular uzun va eni tor ko'ylakda bo'lgan iloh haykalining parchalari bo'lgan. Haykalning faqatgina orqa tomoni saqlanib qolgan. U IV davr qayta qurishdan so'ng peshtoqda turgan. Undan oldin bo'lgan haykalcha sindirilib, pol ostiga tashlangan bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Haykalcha bosh bo'lagining kattagina qismi topilgan bo'lib, yuzi - yorqin bo'yalgan, peshonasida va iyagida qizil va oq aylanachalardan bezaklar chizilgan. Ibodatxonada, shuningdek, II davr haykaltaroshligi qoldiqlari ham topildi.

Sharqiy ibodatxona qazilmalarida topilgan topilmalar orasida Yerqo`rg`on qadimgi aholisining g`oyaviy qarashlari bilan bevosita bog`liq bo`lgan va ibodat uchun ishlatilgan buyumlar alohida ahamiyatga ega. III davrga oid markaziy tokchaning tosm sag`anasida I va II davrlarda ham ishlatilgan buyumlarning kichik xazinasini ko`milgan. Shuningdek, aqiqdan yasalgan iloh va qurbaqaning mitti haykallari kiradi. IV davrga oid pol ostidan anchagina temir buyumlar, oltindan yasalgan osma barg ko`rinishidagi zargarlik buyumlari va bandli kichkina bronza oyna bilan birga yumshoq och rangli qorishmadan quyilgan ilon shakli topilgan. Zardushtiylarning muqaddas hayvoni - tipratikan bilan birga avesto bo`yicha yovuzlik homiysi axuramazdaning mavjudotlari bo`lmish ilon va qurbaqaning shakli joylashgan topilmalar majmuasi Yerqo`rg`on aholisining o`ziga hos mafkurasidan darak beradi.

Ikkinchisi, markaziy yoki g`arbiy ibodatxona deb ataluvchi inshootning pastki qismi 50X50m, tepaligi 7 metrli to`rtburchak shakldan iborat bo`lib, janubiy tarafdin kirishda chuqur o`yiq joy bo`lgan. Bu bino ham ko`p marta qayta qurilgan. Muhimi shundaki, bu bino sharqiy bino bilan bir vaqtda qurilgan bo`lib, ular birgalikda yagona me`moriy majmuani tashkil qilgan (panjikentdagi kabi). Lekin o`z me`moriy rejasi bo`yicha u sharqiy ibodatxonadan butunlay farq qiladi.

Ibodatxona majmuasining markaziy yoki g`arbiy qismi (I qazilma, markaziy tepalik) keyinroq qurilgan.

Tashqi jixatdan ehromsimon ko`rinishga ega bo`lgan to`rtburchak devorlar massivi etisar madaniyatiga mansub bo`lgan ko`mish inshooti xususiyatlarini kattalashtirilgan xolatda namoyon etadi. Ushbu bino faqatgina tashqi tomondan o`rganilgan bo`lib, hali uning funktsional vazifalari to`liq o`rganilmagan. Massivning shimoli-sharqiy tomondagi devorlari tashqi devorlar burchagidan topildi. Bu erda tik yo`naltirilgan fasadga ega bo`lgan to`rtburchaksimon yirik ibodatxona mavjud bo`lib, u ko`rinishidan yanada qadimiyroqdir. bu inshoot o`z ko`rinishi va hajmi bilan oks va surx-kotol ibodatxonalariga o`xshab ketadi. Uning yoshi sharqiy tepalikning I, II qurilish davrlariga borib taqaladi. U ham olov saqlanadigan joy vazifasini bajargan bo`lishi mumkin.

Qo`sh ibodatxonalar qurish an`anasiga to`xtaladigan bo`lsak, bu narsa eronda salavkiylar va parfiyaliklar davrida va keyinchalik, So`g`dda ham ma`lum bo`lgan. Yerqo`rg`on qasri binosi ichki shaharning shimoliy qismida ibodatxonalar majmuasi orqasida joylashgan. Oldingi qismi ibodatxona majmuasi kabi janubga qaratilgan mazkur yirik inshoot avvalroq hukmdor saroyi sifatida e`tirof etilgan. Bu bino tikkasiga ikki qismli bo`lgan va 1 gektarga yaqin maydonni egallagan. Pastdan 12 metr balandlikda bo`lgan yuqori maydon keng yo`nalishga mo`ljallangan. Janubiy tarafdin unga 4-5 metr pastda pastki maydon joylashgan. Chuqur pastlikni inobatga olgan holda qasrga kirish yo`li janubiy tarafning markazida joylashgan.

Qasr yuqori maydonchasi shurfi shuni ko`rsatadiki, u to`rtburchak shakldagi xom g`ishtdan iborat mustaxkam platforma asosida qurilgan. Platformaga nisbatan 5 metr baland bo`lgan, ilgari qurilgan devorlar suvab tashlangan.

Qasr majmuasi

Yerqo`rg`on qasri o`z tuzilishi va umumiy mazmuniga ko`ra, o`rta osiyoning mashhur qasrlaridan biri bo`lgan. U har biri alohida reja asosida qurilgan mustaqil ikkita, ya`ni yuqori va pastki maydonchalarga bo`linganligi bilan ham o`ziga xosdir. yuqori maydonda keng chiziq bo`yicha cho`zilgan alohida tsellalar (xonalar), vestibyullar, sharqqa qaratilgan ayvonlar, hovlilar va ovqatlanish xonalari mavjud bo`lib - bularning bari tor yo`laklarining ikki qatori bilan tutashtirilgan edi. Uni qasr ibodatxonasi bo`lgan deb hisoblash mantiqan to`g`ridir. Yerqo`rg`on qasrining tor yo`lakchalar bilan birlashtirilgan hovlichalar va imoratlar tuzilishiga ega bo`lgan pastki maydoni rejasi tuzilishi qadimgi sharqning ko`pgina qasr majmualariga xos. Bularga bobildagi navuxodonosor qasri va suzadagi doro qasrini misol qilib olish mumkin. Qadimgi o`rta osiyo qasrlari bilan Yerqo`rg`on qasrini unda alohida ibodatxona majmuasi mavjudligiga yaqinlashtiradi. Qizilqir, kalolqir, tuproqqala, Yerqo`rg`on va panjikent qasrlari shu jihatlari bilan axamoniylarning pasargad, suza va persapoldagi mashhur qasrlaridan farq qiladi va ularning saroy qurilishidagi yanada qadimiy hisoblanmish ossuriya va midiya an`analariga borib taqalishi extimoli mavjud. Balki, "davlatlar qirolligi"da juda ko`p muhim ibodatlar (ilohlar) bo`lgandir.

Shuning uchun rasmiy qabullar bo`ladigan zal "apadanalar" axamoniylar qasrida markaziy o`rin tutgan bo`lib, ularda sajda qilish inshootlari bo`lmagan.

Axamoniylar qasrlari umumimperiya ma`muriy integratsiya markazlari xisoblangan.

Yerqo`rg`on qasri xususiyatlari haqida xulosa qilib shuni aytish kerakki, shahar va qasr ibodatxona majmualari bir-biridan tamomila farq qilgan. Markazida olov yongan qasr ibodatxonasi tsellasi, yo`laklar tizimi orqali kunduzga yorug`lik va atmosfera ta`siridan butunlay ajratib qo`yilgan. Shuningdek, tasviriy san`at izi ham sezilmaydi, bu taxminan qasr va shahar muqaddas dargohlari ibodatdagi farq bilan bog`liq bo`lishi mumkin.

Qasr ibodatxonasi doimiy olov saqlashga mo`ljallangan edi. Olov ma`bud (iloh) sharafiga, yoki III-IV asrlardagi naxshab hukmdorlarining ilohiylashtirilgan ajdodi sharafiga yoqilishi mumkin edi.

Hukmdorlar maqbarasi

Yerqo`rg`onning yana bir ulkan xotira inshooti III-IV asrlarga taqaluvchi hukmdorlar maqbarasidir. Me`moriy jihatidan ushbu topilma shahar tomonga qaratilgan va uch tomondan tor yo`laksimon imorat bilan o`ralgan to`rtburchak markaziy zal yoki ayvon ko`rinishiga ega bo`lgan noyob ijodiy yodgorlikdir.

Majmua yuqori zinali, ehromli platformada qurilgan bo`lib, tepaga olib chiquvchi ganch surilgan pishiq g`ishtdan terilgan paradli (hashamatli) zinasi ham mavjud bo`lgan. Maqbara interüeri tuzilishi echimi mashhur kushon ibodatxonasi surxkotalning rejasini takrorlaydi. Yerqo`rg`onda rejalashtirishning bu turi hashamatli maqbaralar qurilishida ko`p bor qo`llanilgan.

Yerqo`rg`ondagi hukmdorlar dafn marosimlari o`sha davrdagi o`rta osiyo shahar axolisi uchun xosdir. Markaziy zal asosan yodga olish (xotira) xususiyatiga ega bo`lgan marosimlar uchun xizmat qilgan, perimetr bo`yicha joylashgan tor imoratlarda III-IV asrlardagi naxshab hukmdorlarining tozalangan suyaklari ko`milmasi ko`mish anjomlari bilan birgalikda topilgan bo`lib, bu imoratlar suyaklar, diniy xayr-ehsonlar va xotira rekvizitlari saqlanadigan joy bo`lgan. Temirchilar mahallasi

Naxshab markazining aholi yashaydigan inshootlari me`morchiligiga to`xtaladigan bo`lsak, Yerqo`rg`onning yuqori qismi IV- VI asrlardagi aholi yashash joylarinint to`liq suratini berib, bu erda qullar va temirchilar mahallasi ko`proq o`rganilgan. Birinchisi ichki shaharda joylashgan bo`lib, o`zining qazilgan qismi (13 qazilma) mahallani tashkil etuvchi alohida uy xo`jaliklari qatorlaridan iborat. Bir necha xonadan iborat bo`lgan anchagina katta uylar tegishli jihozlarga ega bo`lgan. Sajdagohga ega bo`lgan (olov yoqish izlari bo`lgan mexrob, loydan yasalgan haykal) ko`pgina uy xo`jaliklari hovlilarga ega emas edilar. Kulollar mahallasi bo`ylab o`tkazilgan yagona devor mahallani sharqiy va g`arbiy qismlarga bo`ladi. Barcha xo`jaliklar kattaroq yoki kichikroq to`rtburchakli qismlarda yoki sektsiyalarda joylashgan bo`lib, ushbu mahalla tuproqqal`a va qadimiy xorazmning boshqa shaharlari yashash mahallalariga monand yagona massiv shaklida qurilgan.

Yerqo`rg`on tashqi shahrida joylashgan temirchilar mahallasi boshqacha taassurot uyg`otadi. Mahalla ichki devor darvozasidan to Samarqand va kesh yo`nalishiga olib chiquvchi tashqi darvozagacha cho`zilgan ko`chaning ikki tarafida joylashgan edi. Temirchilarning butun xo`jaligi chiqish yo`li ko`chaga qaratilgan bo`lib, janubiy tomonda faqat ishlab chiqarish ustaxonalari joylashgan. Shu yerning o`zida savdo ishlari olib borilgan. Shimoliy tarafda esa aholi istiqomat qiluvchi uylar joylashgan edi.

Naxshabning V-VIII asrlarga oid qishloq joylaridagi inshootlarida olib borilgan qazishmalarning (Kunjutlitepa, Qo`shtepa va b.) ko`rsatishicha, shahar va qishloq aholisi xo`jaliklari ichki tuzilishida ko`zga ko`rinarli farqlar bo`lmagan.

Madaniyatning Yunonlashtirish

Mil. Av. II-I asrlardan to milodiy III-IV asrlargacha bo'lgan haykaltaroshlik san'atining uncha ko'p bo'lmagan uzuq-yuluq bo'laklari bezakli asoslaridan panjikent syujet tasviriga o'zining yanada erkin chiziqlari bilan rivojlanishi orqali xorazm tuproqqal'asi uslubiga yaqinlashuvchi janubiy sug'dning evolyutsion yo'li haqida dalolat beradi.

O'sha davrdagi Yerqo'rg'on kulollari mahsuloti antik davrdan ilk o'rta asrlarga o'tish davridagi kulolchilik namunalarini o'zida mujassamlashtirgan. o'tgan davrlarga xos bo'lgan qadahlar saqlanib qolmagan. Ilk o'rta asrlardagi Yerqo'rg'on kulolchiligi namunalari o'ziga xos tarzda uning ko'rinishini xalqasimon tutqichga ega bo'lgan kichik ko'zachalar va ingichka devorli qizil hoshiyali idishlar belgilaydi. Ko'pgina yopishtirilgan idishlar ham mavjud bo'lib, ular orasida kuldonlar yoritgichlar va ibodat qilinadigan manqallar bor.

Naxshabning er.av. III-I asrlarga tegishli terrakotikaga oid ilk shakllari idishga meduza-gorgona yuzi va qomatning yopishtirilgan shakl ko'rinishiga o'xshab ketuvchi ellincha qiyofalarning alohida topilmasi ko'rinishida ifodalangan. Shirikrobot madaniyatiga ma'lum bo'lgan oddiy ibtidoiy shakli qo'lbola erkak haykali to'plamini boyitadi.

Milodiy I-II asrlar uchun ellinlashgan va mahalliy uslublarning Yerqo'rg'on koroplastikasi tipologik qiyofalarini ishlab chiqarish uchun o'zaro hamohanglik xos. Milodiy birinchi ming yillikning birinchi yarmida Yerqo'rg'on haykalchalarning ellincha kiyimda bo'lishi naxshab uchun odatiy holat bo'lgan. Ushbu haykalchalardagi qo'l xolati quyidagicha: o'ng qo'l - ko'krak ostida, chap qo'l esa qorinda joylashgan. Ayniqsa, haykalchalar ichida bir ayol haykalchasi juda mashhur edi. Bu xilda kiyim kiygan antik ayol qiyofasi baqtriya, marg'iyona va sug'dda keng tarqalgan bo'lib, mumtoz yunon xitonasiga borib taqaladi.

Ellincha qiyofadagi haykalchaning boshqa xili - engi bo'lmagan uzun xitondagi kelishgan ayol qomati bo'lib, chap qo'li yuqoriga qaratilgan va o'ng qo'li tanasi bo'ylab cho'zilgan. Bu tipdagi haykalcha ko'p hollarda peoniyning mashhur nika haykalchasi shakli va ikonografik belgilarini takrorlaydi.

Yerqo'rg'on terrakotasi uslubiyatidagi ikkinchi yo'nalish yovvoyilashtirilgan shaklda ayol ma'budasining tekis, sxematik chizilgan qomati va ko'kragi ostida kerilgan barmoqlari shaklida ifodalangan. Uning keng ko'ylagi yelpig'ichsimon shaklda valiklarga bo'lingan. Bu kiyim ko'chmanchilarga taalluqli bo'lib, otda yurish qulay bo'lishi uchun etagi keng qilingan. Beldan pastga qo'ng'iroqsimon tarzda kengayuvchi ushbu kiyim turi tekislikdagi tosh haykaltaroshligiga, shuningdek, Surxkotal, Shotorakka xos edi. Terrakot shakllar orasida esa Saksanoxur, Xolchayon, Mirzako'ltepa va Dalvarzintepaga xos.

**III-IV asrlar naxshab koroplastika san`atiing eng rivojlanish nuqtasiga etgan davr edi.** Haykallarni talqin qilish shartliroq detallar sxemalashtirilgan, harakatning tashqi jismoniy shakldan ichki jamlanganlik va haykalchalar yuzining ruhlanganiga o`tish seziladi. haykalchalar badiiy munosabatda va realizm jihatidan ilgari davrda yaratilgan eng yaxshi na`munalardan qolishmaydi. Personajlar qo`lida u yoki bu attributlar paydo bo`ladi. Kostyumlar - ellincha, sharqiy yoki aralashgan shaklda.

Ellin madaniyatiga xiton va kalafga o`xshaydigan bosh kiyimli gimatiya kiygan ma`buda qiyofasi tegishlidir.

Qo`liga oyna olgan ma`buda haykalchasining bir necha variantlari saqlanib qolgan. Yerqo`rg`ondagi shahar ma`budasi ibodatxonasida bir necha oynalar topilishi, u shahar va naxshab viloyatini himoyasiga olgan ma`budaning ramzi bo`lganini ko`rsatadi va bu haykalchalar aynan shu ma`budani aks ettirgan bo`lishi mumkin. Bu haykalchalar birinchi bo`lib xorazmda, keyin esa baqtriyada topilgan, ammo bu turdagi haykalchalar marvda eng keng tarqalgan bo`lib, ularda odatda ma`budaning oyog`i ostida ilon yoki ajdarholar bilan birga aks ettirilgan (meshkeris).

Tasviriy san'at

O`rta osiyoda tasviriy san`atning rivojlanishi va yoyilishiga ikki uslub: qadimiy sharq va ko`chmanchi skif - sak tasviriy san`atiga mansub ellin va maxalliy uslublarning o`zaro bir biriga samarali ta`siri o`ziga xos o`rin tutadi. Vaqt o`tgan sari tasviriy san`at ko`proq ieratik, shartli silliqdashib hamda yorug`lik soyasini va istiqbol illyuziyasini yo`qotgan holda ellin uslubiga xoslikni, ya`ni jonlilikni, haqqoniylikni yo`qotib borgan. Bu avtohtonizmning g`alabasidan dalolat beradi, deb aniq aytolmaymiz, chunki bu belgilar, antik merosning an`anasi kuchli bo`lganiga qaramay, vizantiyaning ilk xristian san`atida ham uchraydi.

Naxshab terrakotasi, o`rta osiyaning koroplastika san`atining umumiy oqimida rivojlangan bo`lib, bundan tashqari kiyim, ko`rinish va atributlarni tasvirlashda o`ziga xosligi bilan ajralib turgan. Nashxab haykallarining proportsiyasi o`zining balandligi bilan ham ajralib turadi. kiyimlar borsida, ayniqsa, ayollar kiyimlari, ko`proq ellin uslubiga mansub bo`lib, Buxoro va Samarqand terakotasiga esa ko`proq og`ir, osiyo uslubida bichilgan, durlar, uzuklar, o`yib ishlangan har hil bezaklar bilan bezalgan kiyimlarga o`xshash kiyimlar shiberganga yaqin bo`lgan tillatepadagi hukmdorlar maqbaralarida uchraydi. Nashxab uchun mesopotam uslubidagi yalang`och haykallar ham xos bo`lganmikan, vaholanki barcha musiqachi ayollar yalang`och tasvirlangan. Naxshab terrakotasida ayollar qo`llarining ko`pincha bo`sh holda tasvirlanishini ko`rish mumkin. Ilk o`rta asrlar koroplastikasiga xos plaketikalar Yerqo`rg`onning qo`shni mintaqalarida kuzatilmagan. III-V asrlarga mansub ba`zi haykalchalarda gandxar maktabi usulining ta`siri kuzatiladi.

Xulosa.

Qarshi shahrining 2700 yilligi munosabati bilan zamonaviy me'morchilik uslublari asosida rekonstruksiya qilinib, ishga tushirilgan viloyat O'lkani o'rganish muzeyida ayni paytda ekspozitsion reja asosidagi sakkiz bo'limdan iborat ko'rgazmalar tashkil etilgan bo'lib, ularda Qarshi shahrining eng qadimgi davrlardan hozirgacha bo'lgan hayoti haqida hikoya qiluvchi davriy ekspozitsiya, qadimgi Yerqo'rg'on yodgorligida olib borilgan arxeologik qazishmalarda topilgan, qadim Nasafning haqiqiy yoshini aniqlash uchun asos bo'lgan turli davrlarga oid yuzlab noyob topilmalar, tarixiy va arxeologik eksponatlar, numizmatika, etnografiya, xalq amaliy san'ati namunalari saqlanmoqda.

Muzey fondida 20 mingdan ortiq rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik, numizmatika, arxeologiya, amaliy san'at, suratlar, hujjatlar, maishiy va etnografiya buyumlari mavjud bo'lib, bu yerda "Tarix", "Xalq amaliy san'ati", «Xotira va qadriyat» kabi bo'limlar faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu bo'limlarda 2005 yilda Qarshi shahridagi «Odina» masjidi yodgorligini tiklash va ta'mirlash jarayonida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida aniqlangan XIV asrga oid tut daraxtidan yasalgan eshik, turli koshinlar kabi ellikdan ortiq arxeologik topilmalar saqlanmoqda.

2007 yilda muzey fondi bir necha noyob eksponatlar – V-VI asrga oid haykaltaroshlik (terrakota) namunalari va VI-VII asrlarga oid sopol ostodon, XVIII-XIX asrlarga oid etnografik buyumlar, arxeologik hujjatlar bilan boyitildi.

Muzeyda xalqaro Amir Temur va «Oltin meros» jamg'armalari viloyat filiallari, «Nuroniy» jamg'armasi, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati va boshqa jamoa tashkilotlari bilan hamkorlikda ilmiy konferensiya hamda seminarlar tashkil etish yaxshi an'anaga aylangan. Bu yerda turizm infratuzilmasini shakllantirish maqsadida «Qashqadaryosayyoh» aksiyadorlik jamiyati bilan birgalikda muntazam ravishda yoshlarning muzeyga tashrifini ta'minlash uchun viloyatdagi oliy o'quv yurtlari, kollej va maktablar bilan shartnomalar tuzilgan.

Muzeydagi ko'rgazmalar to'g'risida bukletlar tayyorlanib, ta'lim muassasalariga tarqatilmoqda. Shuningdek, xorijiy sayyohlarning Qarshi shahriga tashrifini ta'minlash maqsadida jamoatchilik joylari va markaziy ko'chalarda reklama bannerlari o'rnatilmoqda.

Muzeyda sayyohlar Qashqadaryoning qadimgi davr madaniyati, Qarshining ilk o'rta asr va o'rta asrlardagi, XX asrdagi hamda mustaqillik yillaridagi tarixi, aholining turmush tarzi, voqea etnografiyasi haqida hikoya qiluvchi eksponatlar bilan tanishishi mumkin.

Arxeologik qazishmalar davomida qadimgi Yerqo'rg'on dan topilgan sopol idishlar, kulolchilik buyumlari muzey ekspozitsion ko'rgazmasining asosini tashkil etadi.

Tadqiqotlar davomida yuzlab mana shunday noyob topilmalar qazib olingan va muzey fondidan joy olgan. Bizga ma'lumki, o'sha davr xalq hunarmandchiligining mahalliy xomashyosi asosan tuproq hisoblangan. Loydan yasalgan sopol idishlarga kulollar turli shakl va bezak berganlar. Ulardan ko'pincha suv va oziq-ovqat mahsulotlarini saqlashda foydalanilgan.

Qashqadaryoda uzoq yillar tadqiqot olib borgan arxeologik ekspeditsiya ma'lumotlarida hozirgi Yerqo'rg'on yodgorligi o'rnida eramizdan avvalgi VIII-VII asrlarda paydo bo'lgan qadim shahar taxminan besh yuz yil davomida vohaning bosh shahri – poytaxti bo'lib, yirik savdo va iqtisodiy markaz sifatida faoliyat ko'rsatgani qayd etilgan. Bu noyob topilmalarda nafaqat xalq amaliy san'atining rivojlanish davrlari, balki Qarshi shahrining tarixi ham muhrlangan. Muzey haqiqiy ma'rifat maskani bo'lishi uchun kelgan sayyohlar eksponatlar orqali uzoq tarixga xayolan sayohat qilish imkoniga ega bo'lishi lozim. Shuning uchun eksponatlar davrlar bo'yicha kompozitsion uyg'unlashgan holda joylashtirilgan.

Muzeylar ma'lum davr tarixi haqida aniq ma'lumotni o'zida mujassam etgan tabarruk dargoh. Unda bo'lgan kishi eksponatlar orqali bevosita shu davrga sayohat qiladi. Tarix esa, Yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda, o'zligimizni anglash yo'lidagi buyuk manba hisoblanadi. Tarixni bilishda, o'zlikni anglashda o'tmishimiz ko'zgusi bo'lgan muzeylarning ahamiyati beqiyosdir.

Yerqurg'on vatanimiz tarixi qadim davrlardan boshlab shakllanganini ko'rsatadi. Bu shahar o'z davrining mustahkam qal'a shahri bo'lganligi bilan alohida ajralib turgan. Bu yodgorlikdan topilgan diniy jihozlar O'rta Osiyoda qadimdan diniy ananalarining mavjud bo'lganligini ko'rsatadi. Topilgan dahma o'zining aniq rejali ekanligi bilan davr memorchiligi haqida ham malumotlar beradi. Vatanimiz tarixini o'rganishda o'z o'rniga ega ekanligi bu shahar haqida chuqurroq bilim olishimiz undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Isamiddinov.M va Sulaymonov R. “Naxshab”. Toshkent “Manaviyat” 2004y.
2. Rustam Sulaymonov “Naxshab—unutilgan tamaddun sirlari”.
3. Kabanov.S.K “Naxshabskie moneti V—VI vv VDI 1961g.
4. Sulaymonov R i Isamiddinov M “Kompleks ritualno kultovoy keramiki IV—V vv iz Yujnovo Sogda” 1977g.
5. Kabanov.S.K “Naxsheb na rubeje drevnosti i srednovekovya” Tashkent 1977g.
6. Masson.M.E “Novaya materialy po arxeologi Tajikistana” 1955g
7. WWW.GOOGLE.UZ
8. WWW.REF.UZ